

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883942>

1-SINF ONA TILI DARSЛИGIDA FONETIKA BO'LIMINING O'QITILISHI

Shavkatova Surayyo Shaxob qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Hamrayev.M.A**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim dotsenti, filologiya fanlar nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotation: Ushbu maqolada boshlang‘ich 1-sinflarda fonetika bo‘limining o‘qitilish metodikasi yoritilgan. Shuningdek, darsliklardan topshiriqlar ko‘rib chiqilib xulosalar qilingan.

Keywords: Boshlang‘ich ta’lim, fonetika, imlo, DTS, grafika, talaffuz.

Аннотация: В статье рассматривается методика преподавания раздела фонетики в первом классе начальной школы. Также были рассмотрены задания из учебников и сделаны выводы.

Ключевые слова: Начальное образование, фонетика, орфография, DTS, графика, произношение.

Abstract: The article examines the methods of teaching the phonetics section in the first grade of primary school. Also, assignments from textbooks were considered and conclusions were made.

Keywords: Primary education, phonetics, spelling, DTS, graphics, pronunciation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi ”O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari tog‘risida”gi Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida ” 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi”(1) qabul qilindi. Bu respublikamizda davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o‘zbek tilinining xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirishga xizmat qiladi.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his, kechinmalarni ifodalashda muhim o‘rin tutganligi boisdan ham jamiyat a’zolarining bir-biri bilan aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa fikr shunchalik aniq, ta’sirchan ifodalanadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetika bo‘limining chuqur o‘qitilishi juda ham muhimligi uning mana shu asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bu mavzuni oddiy va tushunarli usullar bilan yetkazish zarur. Chunki umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridagi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ”Fonetika” bo‘limini o‘qitish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlay olish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish ishlari 1-4- sinflarda amalga oshiriladi. Endigina maktabga qadam qo‘ygan 1-sinf o‘quvchilari shu kungacha ham ma’lum bir tabiatdagi tovushlarni anglay oladilar, shuningdek, ravon bo‘lmasada o‘z nutqlariga ega bo‘lishida. Maktabga qadam qo‘ygan ilk kunlaridan boshlab ona tili darslarida birinchi bo‘lib fonetika bo‘limlari bilan tanishib oladilar. Chunki o‘quvchilarning nutqlarini o‘siruvchi hamda nutq tovushlari bilan tanishib va ularning grafikasini o‘rganishda fonetika bo‘limi ahamiyatli hisoblanadi. Quyida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetika bo‘limining o‘qitilishi qanchalik ahamiyatli ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

- a) fonetik bilimga asoslangan holda 1-sinf o‘quvchilari savod o‘rganish davrida o‘qishni va yozishni bilib oladilar;
- b) fonetik bilim so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish (tovushlami to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘uli bo‘g‘inni farqlash, orfoepik bilimlar) asosini tashkil etadi;
- d) fonetik bilim morfologik va so‘z yasalishiga oid bilimlar bilan birga

o‘quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo‘ladi;

e) fonetik bilim gapning ohangiga ko‘ra to‘g‘ri aytish, logik urg‘u va gap qurilishidagi to‘xtamlarga rioya qilish uchun zarur;

f) so‘zning tovush tomonini bilish uning ma’nosini tushunish va nutqda ongli qo‘llash uchun muhimdir;

Milliy o‘quv dasturiga muvofiq nashrdan chiqqan 1-sinf 1-qism Ona tili darsligida savod o‘rgatish davrida berilgan bilimlarni quyidagicha mashqlardan foydalanib mustahkamlash hamda qo‘srimcha ma’lumotlar berib o‘quvchilar bilimi boyitib borish mumkin.

Topshiriqda berilgan so‘zlar: ***Murakkap javop, uzog‘sabar, balant ovos, munosip nomzot.***

Berilgan topshiriqning shartiga ko‘ra berilgan so‘zlardagi xatoni topib, ularni to‘g‘rilab ko‘chirish kerak. Ko‘rinib turganidek, barcha so‘zlearning oxirgi tovushida xatolik mavjud. Ya’ni talaffuzda qanday aytilsa va qanday eshitilsa xuddi shunday yozuvda ifodalash kuzatilgan. Albatta, bu xato kichkina xato emas, ba’zi o‘quvchilar ham ko‘p hollarda shunday xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi. O‘quvchilarga so‘zлarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqini aniqlash uchun so‘z oxirida unli harf qo‘shib talaffuz qilib ko‘rish kerakligini eslatib o‘tish kerak. Quyidagicha:

ESHITILISHI	YOZILISHI	TEKSHIRISH
JAVOP	JAVOB	JAVOBI
OVOS	OVOZ	OVOZI
BALANT	BALAND	BALANDI

Shunindek, yozuvda bu so‘zlar bilan xatolikka yo‘l qo‘ymaslikning yo‘li bu ko‘z xotirasidan foydalanish ham hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchi rasmli diktatlardan foydalanish hamda yozuv taxtasida yoki elektron doskalarda bu

so‘zlarning qoida binoan yozilgan nusxasini o‘quvchilarning ayrimlarini tanlab olgan holda ushbu so‘zlarni talaffuz qilidiriladi. Yuqoridagi so‘zlarni tahlilidan xulosa qilgan holatda o‘quvchilarga qoidani soddarоq tilda tushuntirishimiz mumkin.

- Javob, ovoz, baland kabi so‘zlardagi oxirgi tovushni talaffuzda tushirib qoldirilsa ham yozuvda albatta yoziladi.

DTS asosidagi o‘quv dasturiga muvofiq 1-4- sinflarda o‘quvchilar fonetika bo‘limi yuzasidan quyidagilarni bilishlari zarur. Fonetika va grafikaga oid nutq tovushlari, unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz tovushlar, talaffuzda tushib qoladigan undoshlar, x va h tovushlarning talaffuzi, so‘zdagi qo‘sh undoshlar talaffuzi va imlosi, harf birikmalari, tutuq belgisi, bo‘g‘in, bo‘g‘inga bo‘lish va bo‘g‘in ko‘chirish kabilar o‘rgatiladi. Yuqorida o‘quvchilar bilishi kerak bo‘lgan talablarining barchasiga oid mashqlar 1-sinf ona tili darsligida berilgan bo‘lib. Milliy o‘quv dasturiga muvofiq ishlangan. “Fonetika” garchand tilning tovush tizimi bilan ish ko‘rsa-da, ammo o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, tez va to‘g‘ri o‘qish malakalarini takomillashtirish, fikrni ifodalashda tovushlarning boy imkoniyatlaridan foydalanish, yaratishga o‘rgatish diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Xulosa: 1-sinf o‘quvchilarida fonetika bo‘limining o‘qitilishi hamda darslikdagi mashqlardan o‘quvchilarda tez fursatda savod chiqarishi hamda imlo qoidalariga amal qilgan holda yozishlari, shuningdek, bo‘g‘in hamda bo‘g‘inga to‘g‘ri ko‘chirish, nutqda so‘z urg‘usidan foydalanish ko‘nikmasiga va bundan tashqari o‘qishda hech qanday xatolarga yo‘l qo‘ymay tez hamda bexato o‘qish qobiliyatlarini shaklantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.
2. Jumakulova M.X. Andijon davlat universiteti (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti O‘zbekiston, Andijon.
3. A.G‘ulomov,M.Qodirov,M.Ernazarova,A.Bobomurodova N.Alavutdinova,V.Karimova. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent -2012.146-bet
4. Boshlang‘ich sinflarda fonetika bo‘limining o‘rgatilishi.
Erg‘oziyeva Xurshidaxon Abdusalom qizi Farg‘ona
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11028330>